




Dastlabki ma'lumotlar

2021– yilning yanvar– mart oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021– yilning yanvar– mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 949,4 mlrd. so'mni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 102,9 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar– 851,8 mlrd. so'mni (103,2 %), o'rmon xo'jaligi– 80,2 mlrd. so'mni (101,1 %), baliqchilik xo'jaligi– 17,5 mlrd. so'mni (98,8 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasining ulushi 3,2 % ni tashkil etdi.



**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot
(xizmat)lar hajmining o'sish sur'ati, % da**




**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot
(xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (% da)**



2021– yilning yanvar– mart yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 89,8 % ni – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 8,4 % ni – o‘rmon xo‘jaligi, 1,8 % ni – baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2021– yilning yanvar– mart oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Amudaryo (162,2 mlrd. so‘m) va Beruniy (119,5 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Nukus shahri (8,8 mlrd. so‘m), Mo'ynoq tumani (12,4 mlrd. so‘m) va Bo'zatov tumani (24,8 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi ko‘rsatkichidan (102,9 %) yuqori o‘sish sur’atlari Chimboy (108,9 %), Qo'ng'iroq (107,2 %), Taxtako'pir (105,6 %), Bo'zatov (105,0 %), Qorao'zak (104,2 %), Kegeyli (103,3 %), Shumanay (103,2 %) tumanlarida kuzatildi, Beruniy (100,3 %), Nukus shahar (97,8 %), Mo'ynoq (96,9 %) tumanlarida esa aksincha o‘sish sur’atlari pastligi kuzatildi.


Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2021– yilning yanvar– mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 851,8 mlrd. so'mni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 103,2 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 51,9 mlrd. so'mni (104,5 %), chorvachilik mahsulotlari – 792,9 mlrd. so'mni (103,1 %) tashkil qildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



**Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari
hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%da)**




**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida
dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi**



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 87,5 % ni – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 10,4 % ni – fermer xo'jaliklariga, 2,1 % ni – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (% da)



2021–yilning yanvar–mart oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Amudaryo tumani (21,1 %), Chimboy tumani (17,5 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Qarao'zak tumanida (98,2 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Nukus shahar (17,0 %) qayd etildi.


Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Kegeyli tumanida (1,5 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng kam ulushi Amudaryo tumanida (73,9 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Qarao'zak tumanida (0,2 %) qayd etildi.

Dehqonchilik


2021– yilning yanvar– mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 51,9 mlrd. so‘mni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 104,5 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiylajimi dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 6,1 % ni tashkil qildi.

Sabzavotlar


Hajmi, t.



O’sish sur’ati, % da



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



● Fermer xo‘jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari


● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning yanvar– mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 617,0 t. sabzavotlar (2020– yilning yanvar– martiga nisbatan 1,5 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Sabzavot yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiylajimidan 60,0 % ni qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



**Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha *sabzavotlar*
yetishtirish hajmi, tonna**




Chorvachilik



2021– yilning yanvar–mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 792,9 mlrd. so‘mni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 103,1 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiylajiga hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 93,9 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora–tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2021– yilning yanvar– mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 15,5 ming t. go‘sht (2020– yilning yanvar – martiga nisbatan 2,6 % ga ko‘p), 50,9 ming t. sut (2,1 % ga ko‘p), 80,3 mln. dona tuxum (3,3 % ga ko‘p), 25,0 ming dona qorako‘l teri (0,1 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi va 1094,2 tonna baliq (0,1 % ga ko‘p) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati, % da



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning yanvar– mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 15,5 ming t. go'sht (2020– yilning yanvar – martiga nisbatan 2,6 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 94,7 % ni dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




**Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha go'sht (tirik vaznda)
yetishtirish hajmi, tonna**




Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati, % da



**Ishlab chiqarilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi)
xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning yanvar– mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 50,9 ming t. sut (2020– yilning yanvar– martiga nisbatan 2,1 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 90,8 % ni dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha ishlab chiqarilgan
sut hajmi, tonna**




Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati, % da



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning yanvar– mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 80,3 mln. dona tuxum (2020– yilning yanvar– martiga nisbatan 3,3 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiylajmiy hajmidan 92,0 % ni dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha olingan **tuxum**
hajmi, ming dona




Baliq


Hajmi, t.



O'sish sur'ati, % da



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2021– yilning yanvar– mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1094,2 t. (2020– yilning yanvar– martiga nisbatan 0,1 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiyligi hajmidan 52,7 % ni qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



**Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha ovlangan baliq
hajmi, tonna**



Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2021– yining 1– aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,0 % ni fermer xo'jaliklari hissasiga, 94,0 % ni dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,0 % ni qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 11,6 % ni fermer xo'jaliklariga, 86,8 % ni dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,6 % ni qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiyligi sonidan 22,9 % ni fermer xo'jaliklariga, 74,5 % ni dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 2,6 % ni qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi shuningdek, parrandalar umumiyligi sonidan 7,6 % ni fermer xo'jaliklariga, 85,9 % ni dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 6,5 % ni qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.


2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 123,0 mingtaga yetdi. 2020– yilning 1– aprel bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 21,0 mingtaga (1,9 %) ko‘paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O’sish sur’ati, % da



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**



Fermer xo‘jaliklari

**Dehqon (shaxsiy yordamchi)
xo‘jaliklari**


**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 94,0 % ni dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzaitildi.




Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha **yirik shoxli**
qoramollarning umumiyligi
bosh soni, ming bosh




2021–yilning 1–aprel holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiyl bosh soni 323,4 mingtaga yetdi. 2020–yilning 1–aprel bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 5,2 mingtaga (1,6 %) ko‘paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O‘sish sur’ati, % da



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**



● Fermer xo‘jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi)
xo‘jaliklari


● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021–yilning 1–aprel holatiga ko‘ra, sigirlarning bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 92,9 % ni dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzaitildi.




**Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha *sigirlarning*
umumi bosh soni,
ming bosh**




2021–yilning 1–aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 1128,7 mingtaga yetdi. 2020–yilning 1–aprel bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilarni bosh soni – 21,4 mingtaga (1,9 %) ko‘paydi.

Qo‘y va echkilarni


Soni, ming bosh



O’sish sur’ati, % da



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**



● Fermer xo‘jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari


● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021–yilning 1–aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning bosh soni to‘g’risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 86,8 % ni dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g’ri kelishi kuzatildi.




**Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha qo'y va echkilarning
umumi bosh soni,
ming bosh**




2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, otlarning umumiyl bosh soni – 25756 taga yetdi. 2020– yilning 1–aprel bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 1254 taga (5,1 %) ko‘paydi.

Otlar


Soni, bosh



O’sish sur’ati, % da



Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



● Fermer xo‘jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari


● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 74,5 % ni dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzaitildi.




**Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha otlarning
umumi bosh soni, bosh**




2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni– 4466,7 mingtaga yetdi. 2020– yilning 1– aprel bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni– 45,3 mingtaga (1,0 %) ko‘paydi.

Parrandalar


Soni, ming bosh



O’sish sur’ati, % da



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 85,9 % ni dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha **parrandalarning**
umumi bosh soni,
ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

- 61-222-76-07
- 61-224-93-11